YOSH AVLODNI YUKSAK MA’NAVIYATLI SHAXS QILIB TARBIYALASHNING IJTIMOIY – PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.

Asliddin Xolboev,
yoshlar bilan ishlash bo‘yicha
dekan o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimi elementlari, ta’lim jarayonlari va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi qonuniyatlar hamda ta’lim jarayonini innovatsion rivojlantirishning tahlili, yuksak ma’naviyat haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, inson, davlat, ma’naviyat, jamiyat, innovatsiya, ob’ekt, sub’ekt, g‘oya, qonuniyat, tizim, jarayon, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy, substansiya, metodologiya, prinsip, mezon.

Bizga ma’lumki, har bir shaxs va jamiyat qadriyatlari oldida va uning tizimida axloq birinchi o‘rinda turadi. Ijtimoiy falsafada axloq ijtimoiy ongning shunday shakli sifatida tushuniladiki, unda ayrim olingan kishilar, ijtimoiy guruhlar va umuman jamiyatning axloqiy tasavvurlari, odamlar xatti-harakatining me’yorlari va baholanishi o‘z ifodasini topadi. Ana shundan kelib chiqqan xolda, uning mezonlariga tayangan holda biz yuksak ma’naviyatli shaxs tarbiyasi haqida fikr yuritamiz.

Yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirishda biz axloq mohiyatini tushunib, uni ijtimoiy ong shakli (ya’ni anglangan me’yorlar va qoidalar) deb e’tirof etib, odob va xushxulqlik esa kishilar orasidagi o‘zaro munosabatda ularning voqeiy hayotdagi aloqalarida o‘z aksini topadi. Etika deb shunday falsafiy sohani aytishadiki, u inson faoliyatining, odobi va axloqiy me’yorlarini o‘rganadi.

Yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida shakllantirish uchun ma’naviyatning asosiy tarkibiy qismi axloqning eng qadimgi ijtimoiy hodisalardan biri ekanligini yoritib o‘tishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

Axloq va odob haqidagi ta’limot *Sharq falsafasining* ko‘pchilik maktab va yo‘nalishlarida muhim o‘rin tutishini biz manbalardan yaxshi bilamiz. Misol uchun, Zardushtiylik ta’limoti o‘zida shunday axloqiy talablarni mujassam

etganki, unga binoan har bir odam tinchlikparvar va ahllikni sevguvchi bo‘lishi, o‘z yaqinlariga hayrixohlik ko‘rsatishi, zaruriyat va xavfli vaziyatlarda bir-birlariga yordam berishlari, yomonlik, shafqatsizlik, mag‘rurlik, zo‘ravonlik, o‘zboshimchalik, hasad va tuhmatga qarshi kurash olib borishlari, hech qachon g‘azabga yaqin yurmasliklari talab qilingan. Axloq masalalariga x*itoy va hind* falsafasida ham juda katta e’tibor berilgan. Agar ma’lumotlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularda konfutsiychilikda axloqiy talablar, qoidalar, me’yorlar ijtimoiy hayotni boshqarishni va uni tartibga solib turishning asosiy me’zonlari, tamoyillari sifatida maydonga chiqadi. Undagi axloqiy talab quyidagicha o‘z aksini topadi «har bir kishini o‘zingni hurmat qilgandek, hurmat qil, o‘zingga nimani ravo ko‘rishni xohlasang, boshqalarga ham shuni ravo ko‘rki, ular ham bizga shunday munosabatda bo‘lsinlar, bundan yuksakroq hech narsa yo‘q». (Konfutsiy).

Vedalar falsafasiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, undagi eng muhim narsa – bu ezgu ishlar, to‘g‘ri xulq-atvor, kamtarona hayot tarzidir. Faqat shundagina yuksak axloqli kishilarni tarbiyalash mumkinligi qayd etilgan.

Buddaviylik insonning bosh maqsadini azob-uqubatdan qutilish deb e’lon qildi, bunga esa, faqatgina shundagina erishish mumkinki, agar har bir inson o‘zi uchun eng to‘g‘ri xatti-harakatni, to‘g‘ri gapirishni, to‘g‘ri hayot kechirishni shior qilib olsin. Buni buyuk mutafakkir M.Gandining quyidagi so‘zlarini tushunish mumkin: **«qachon harakat qilishni va qachon xatti-harakatlardan tiyilib turishni bilmoq lozim. Bunday sharoitlarda harakat va faoliyatsizlik bir-biriga qardosh bo‘lib, bir-biriga hech ham qarama-qarshi turmaydi».**

Dunyoni falsafiy mushoxadalari bilan lol qoldirgan buyuk faylasuflar Suqrot, Aflotun, Arastu, Epikur, Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Bundt V, *B.Paskal*, Kantlar kishilik jamiyatida ma’naviyatli insonlarning o‘rnini aloxida qayd qilib, ularning faoliyatida axloqiy sa’yi- harakatlar muhim ma’naviy sifatlar ekanligini ta’kidlab o‘tishgan. Misol uchun Suqrot «O‘z-o‘zingni bil» - degan g‘oyani olg‘a suradi. Suqrot o‘z-o‘zini bilishning zamirida chuqur ma’naviy e’tiqod va dunyoviy bilimlarga ega bo‘lish insonga xushxulq bo‘lish imkoniyatini beradi degan xulosaga kelgan.

Aflotun va Arastu baxt-saodat va ezgulik haqidagi ta’limotni ishlab chiqgan. Aflotun falsafasiga ezgulik kishilarga baxt-saodat keltirishini ta’kidlaydi.

Arastu esa ezgulikni insonning o‘z ruhiga xos bulgan xususiyat sifatida e’tirof etadi. Ezguliklar ichida eng yuksagi-bu adolatdir deb quyidagi fikrni bildiradi. «Adolat – bu ulug‘ ruhlarning ezguligidir».

Epikurning axloqiy-falsafiy ta’limotida, bizning fikrimizcha, bosh mavzu sifatida maydonga insonning baxtga, saodatga erishish tamoyillari chiqadi. Epikur inson baxt-saodatga erishishida *huzur* va *lazzatlanishning* o‘rni ta’kidlab, huzur va lazzatlanish biologik ehtiyojlarini va havaslarni qondirishdangina iborat emas, balki inson oqilona, axloqan va adolat tuyg‘ulari bilan yashamasa, u hech qachon baxtli bo‘la olmaydi,- degan xulosaga keladi.

Forobiy uchun axloq – bu insonning jamiyat a’zosi sifatidagi axloqiy xatti-harakatlari to‘g‘risidagi bilimdir. Axloq, odoblik jamiyatni takomillashtirish va baxt-saodatga erishish, ravnaq va umumiy ezgulikka erishish garovidir.

Beruniy adolatni bosh ezgulik hisoblab, qayd etgan ediki, «tenglik joriy etilgan joyda ochko‘z hissiyotlar va g‘am-alam barham topadi».

Sharqning axloqiy-falsafiy ta’limotida muhim o‘rinni Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig» asari egallaydi. Bu asar o‘rta asrlarda turkiy tilda yaratilgan eng yirik yodgorliklaridan biridir. Bu asarda muallif axloqiy-tarbiyaviy masalalarni o‘rtaga tashlaydi. Asarni «Baxt-saodatga eltuvchi bilim» deb tarjima qilishsa bo‘ladi. Ushbu asarda asosiy diqqat-e’tibor insonning ma’naviy kamolotiga qaratilgan. U qayd etgan edi: «Kimning xatti-harakati yaxshi va fe’lu-xulqi to‘g‘ri bo‘lsa, u o‘z maqsadiga erishadi va unga baxt-saodat kulib boqadi». [Yusuf Xos Xojib. Qutadg‘u bilig]

B.Paskal (1623-1662) axloq asoslarini inson tafakkuridan qidirishni tavsiya etadi: «Bizning barcha obro‘-e’tiborimiz shundaki, biz fikrlashga qodirmiz. Shunday ekan, to‘g‘ri fikrlashga harakat qilishimiz kerak: axloq asosi esa ana shundadir». Bu yerda yana bir muhim jihat shundaki, ko‘pchilik mutafakkirlar axloqni siyosatdan ajratishga bo‘lgan urinishni zarurli ekanligini tushundilar: «Dunyoda qachonlardir yo‘l qo‘yilgan eng holakatli xato – bu siyosiy fanlarni

axloqiy fanlardan ajratishdir». (P.Shelli), «Siyosatda yaxshi bo‘lgan narsa, axloqda yomon bo‘la olmaydi» (I.Bentam).

Axloq falsafasi haqidagi asosiy ta’limot I. Kantning ijodiy merosi, ayniqsa uning «Sof aqlni tanqidi», «Amaliy aqlning tanqidi» kabi asarlaridir. O‘lmas falsafiy hikmatlarga aylangan ko‘plab o‘z ifodasini topgan fikrlar aynan Kantga taalluqlidir: «Shunday qilginki, sening shaxsiy xatti-harakating boshqalar fe’lu atvori uchun qoidaga aylansin», «Axloq biz o‘zimizni baxtli hisoblashimiz lozimligi haqidagi ta’limot emas, balki, biz qanday qilib baxt-saodatga loyiq bo‘lishimiz to‘g‘risidagi ta’limotdir», «Axloq ishonch falsafasidir».

Bugungi kun talablari bilan yashash insoniyat oldiga bir qator vazifalarni qo‘ymoqda. Shulardan eng asosy vazifa va talablardan biri buyuk ajdodlarimizga munosib, zamon bilan hamnafas, yuksak ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalashdir. Yuksak ma’naviyatli yosh avlodni tarbiyalashda ijtimoiy hayotning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini inobatga olish muxim axamiyat kasb etadi. Nima uchun degan savolga shunday javob berish mumkin bo‘ladiki, har bir yosh avlod Ona zaminning tinchligi, ravnaqi, buyuk istiqboli uchun o‘zligini chuqur anglashi va vatan chaqirig‘iga labbay deb javob bera olishi kerak bo‘ladi.